

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinnbosari, Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi raisi Zulayho Mahkamova, joriy yilning 13 iuyl kuni O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligida "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashishda ayollarning rolini kuchaytirish va faolligini oshirish" mavzusida tashkil etilgan trening tadbiri ochilishi marosimida ma'ruza qildi

Assalomu alaykum hurmatli anjuman ishtirokchilari,

Darxaqiqat, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida islohotlar izchillik bilan olib borilmoqda.

Aynan mazkur islohotlar amalga oshirilishi doirasida fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligini ta'minlash mexanizmlari takomillashtirildi. Bu o'z o'rnida, iqtisodiyotni yanada o'stirish, xalq farovonligini oshirish borasidagi vazifalarni hal etishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Dastlab, **2017 yil 3 yanvar** kuni "**Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida**" O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilingan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan **2020 yil 29 iyun** kuni "**O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida**" **4761-sonli** qarori imzolandi. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi islohotlarning davomchisi sifatida **2021 yil 6 iyul** kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "**Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida**" **5177-sonli** qarori rasman e'lon qilindi

Va mazkur qarorga muvofiq barcha davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo'lga qo'yildi, shu jumladan Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi markaziy apparati tarkibida ham korrupsiyaga qarshi kurashish tuzilmasi tashkil etildi.

Hozirgi kunda, korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishi bo'yicha Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi, uning hududiy va tarkibiy bo'linmalari ish faoliyatida korrupsiyaviy holatlarga yo'l qo'ymaslik va manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar olib borilmoqda.

Jumladan:

- Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tizimi xodimlarining Odob-axloq qoidalari;
- Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tizimida Korrupsiyaga qarshi qoidalaring asosiy shartlari;
- Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Siyosati kabi ichki hujjatlar ishlab chiqildi va Qo'mita tizimidagi hududiy bo'linmalarga ijro va nazorat uchun yuborildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan **2022 yil 14 iyun** kuni "**Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida**" **154-sonli** farmon imzolandi.

Mazkur farmonga ko'ra, Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash maqsadida Qo'mitaning rasmiy veb-sayti sahifasi yaratildi, bugungi kunda Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar jarayonlari haqida ma'lumotlar va axborotlar rasmiylashtirilib, ushbu veb-sayt orqali muntazam ravishda yoritib borilmoqda.

Shu bilan birga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni kuchaytirish maqsadida Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi raisi va uning o'rinnbosarlari, Prezident Administrasiysi mas'ul xodimlari hamda Oila va xotin-qizlar ilmiy tadqiqot instituti mutaxassislaridan iborat ishchi guruhi tashkil etilib,

2022 yil 20 iyundan 10 iyulga qadar respublika bo'ylab, Qo'mita tizimidagi barcha xodimlar o'rtasida qonun va qonunosti me'yoriy hujjatlarning mazmun-mohiyati, ularni amaliyotga tatbiq etish tartiblari, xizmat faoliyatida manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik mavzularida ma'ruzalar o'qilib, keng qamrovli targ'ibot va tushuntirish ishlari olib borildi.

Yana shuni ta'kidlamoqchimanki, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Matilda Dimoshka rahbarligida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturining (BMT TD)

O'zbekistondagi vakolatxonasi hamkorligida "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashishda xotin-qizlarning rolini kuchaytirish va faolligini oshirish" mavzusi bo'yicha tashkil etilgan mazkur seminar treninglar albatta o'zining ijobiy natijasini ko'rsatadi.

Ishonamanki, respublikadan tashrif buyurgan mutasaddi rahbarlarimiz 2 kun davomida o'tkaziladigan seminar trening mashg'ulotlari jarayonida xorijiy tajribalarni o'rgangan holda o'z bilimlarini oshiradi va mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishda xotin-qizlarning o'rni hamda faolligini yanada kuchaytirilishiga samarali xissalarini qo'shadilar.

E'tiboringiz uchun raxmat